



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

keltirib chiqaradi. Shu sababli oilada sogʻlom psixologik muhit yaratish, farzandlarga mehr va eʼtibor koʻrsatish hamda psixologik yordam tizimini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oʻsmirlarning ruhiy salomatligini asrash jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2007.
2. Gʻoziyev E. Psixologiya. Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
4. Bandura A. Social Learning Theory. New York: General Learning Press, 1977.
5. Craig G. Human Development. New Jersey: Pearson Education, 2005.

OʻSMIRLARDA SUITSIDAL XULQNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Murodova Nilufar Anvar qizi

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
murodovanilufar556@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oʻsmirlarda uchraydigan suidsidal xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, uning oʻziga xos psixologik xususiyatlari, oʻsmirlardagi inqirozlar, ularning atrofga nisbatan munosabatlari, pedagogik muloqot va undagi toʻsiqlar, ichki nizolar va ichki nizoning sodir boʻlishiga, kechishiga, zoʻrayishida oʻsmirning xarakter xususiyatlarida boʻladigan oʻzgarishlar yuzasidan tushunchalar berilgan

Kalit soʻzlar: oʻsmirlik, suidsid, ijtimoiy omillar, psixologik holat, profilaktika, bolalar va oʻsmirlar suidsidi, oʻz-oʻziga baho berish, mardlik, jasurlik.

Kirish. Oʻsmirlik yoshi inson hayotida oʻziga xos murakkabliklar bilan ajralib turadi. Bu davrda jismoniy va ruhiy oʻzgarishlar, shaxsiylikning shakllanishi va oʻz “Men”ini anglash jarayoni oʻta keskin kechadi.[1] Soʻnggi yillarda oʻsmirlar orasida suidsid holatlari ortib borayotgani jahon sogʻliqni saqlash tashkilotlari hamda mahalliy psixologlar eʼtiborini tortmoqda. Oʻzbekiston sharoitida bu holatga ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashish orqali sabab va oqibatlarni aniqlash, profilaktik choralarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-6260-son Farmoni ijrosini taʼminlash, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy anʼana va qadriyatlarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, maʼnaviy yetuk va jismonan sogʻlom barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida “Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida “Vatan tayanchi” bolalar va oʻsmirlar harbiy-vatanparvarlik harakatini (keyingi oʻrinlarda — “Vatan tayanchi” harakati) tashkil etish haqida

farmonni imzoladi. Bu esa mamlakatimizda yoshlarni, o'smirlarni chinakam sog'lom, bakkamol qilib tarbiyalashda muhim qadamlardan biri bo'ldi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviyat, ta'lim, masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Yoshlar dunyoqarashini yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamiyat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida shunday fikrlarni aytdilar: "agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatdir". Yig'ilishda qayd etilishicha, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda.

Muhokama va natijalar. Bolalar kattalar singari bir maromda rivojlanmaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy psixologik xususiyalar, nisbatan barqaror va tinch osoyishta kechadigan davrlar mavjud. Kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli poydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir.[2] Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. Ular tashqi ta'sirlarga va xissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik kabi psixologik sifatlar ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Bugungi kunda internet materiallarini tushunish yoki anglamasdan undan foydalanishga harakat qilishadi. Bu holatda chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal, qulay his qiladi.

O'smirlardagi salbiy xulq-atvorni korreksiya qilish maqsadida umumta'lim maktablarida turli ijtimoiy, motivatsion psixologik trening mashg'ulotlar va olib borilsa amaliy-psixologik maslaxatlar korreksion texnikalar va salbiy hulq-atvorni bosqichma bosqich o'zgartirish mumkin ya'ni, shaxsning o'zini-o'zi va o'z his-tuyg'ularini anglash, o'z shaxsini qayta baholash, hissiyotlar ustida ishlash, salbiy xulq-atvorni anglash, shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklar, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barkamollikka intilish, ota-ona va pedagoglar bilan ishlash kabi mashg'ulotlar majmui qo'llanildi.[3]

Ijtimoiy, motivatsion psixologik treninglar majmuini xalq ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi orqali bola shaxsining pedagogik va psixologik jihatdan mukammal rivojlanishiga yordam beradi.[4] Jumladan, maktab amaliyotchi

psixologining ish rejasiga kiritilgan "Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilarning salbiy burilish va og'ishlarining oldini olish"ga qaratilgan psixologik profilaktika, "Xulqida og'uvchanligi mavjud va moyilligi aniqlangan o'quvchilari bilan korreksiyalash ishlarini tashkil qilish" hamda "bolalar va o'smirlarning salbiy burilishi va og'ishlarining oldini olishda maktab pedagogik jamoasi va ota-onalarning hamkorligini takomillashtirish" kabi vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G.I.Sattorova tomonidan ilk o'spirinlar irodaviy sifatlarini psixodiagnostika qilishvapsixokorreksiyalash jarayonini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Muallif psixologdartyayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida iroda diagnostikasiga bag'ishlangano'quv-mashg'ulot blokini yo'lga ko'yish muhimligini e'tirof etgan. D.R.Abdumajidova o'smirlarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarinianiqlash orqali psixodiagnostika va psixokorreksiya tadbirlari samaradorligini oshirish muhimmasalalarsarasiga kirishini ta'kidlab, olib borilgan tadqiqot natijasida o'smirlar o'quv faoliyatida assertivxulqningintellektual (erkin fikrlovchi, ahloqiy me'yorlarga amal qiluvchi), shaxsiy (ma'suliyat, dadillik,intiluvchanlik) va emotsional (kayfiyat, optimizm) darajalarini aniqlagan.[5] Shuningdek, o'smirlardaassertiv xulqni shakllantirishga yo'naltirilgan "O'smirlarda assertiv xulqni shakllantirishdarajasinianiqlash" psixologik trening dasturi samaradorligini isbotlagan. X.X.Jabborov tadqiqotlari asosida, o'smirlar o'rtasida vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralarganisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologiktreninglar o'tkazish orqali, o'smirlardagi mafkuraviy immunitet beqarorlik darajalarini baholashninguslubiy ta'minoti ishlab chiqib, amalda sinovdan o'tkazdi. [6]Tadqiqot natijasi, barqaror mafkuraviyimmunitet shakllantirish ishlarining ilmiy-metodik ta'minotini kuchaytirishga qaratilgan. O.S.Qodirovning "O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasivapsixokorreksiyasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishinio'rganish, o'smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishida salbiy omillardan himoyaqiluvchi(huquqiy ongni shakllantiruvchi) zamonaviy-psixologik mexanizmlar tuzilmasi, o'smirlarningindividualva ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan "o'zini tasdiqlash", "o'zmanfaatlarini boshqalardan ustun qo'yish", "o'g'rilik", "bezorilik", "buzg'unchilik", "qasoskorlik", "o'zkuchi va jasoratini ko'rsatuvchi" jinoyat motivlarini oldini olishga xizmat qiluvchi uslubiytavsiyalarishlab chiqilgan. R.Z.Jumayev olib borgan tadqiqotlarida o'smirlarda milliy o'zlikni anglashningpsixologikxususiyatlarini tadqiq qilgan. Olim ijtimoiy xulqning ichki, ma'naviy regulyatori sifatida milliyo'zliknianglash xususiyatlarini ishning asosiy maqsadi qilib olgan. Bunda, asosan, o'smirlar ongidadiniyhistuyg'u va e'tiqodning shakllanishi ma'naviy hayot doirasida muhim ahamiyatga egaligi vaularningijtimoiy axloqini, xulqini takomillashtiruvi yoki ulardagi salbiy xulq-atvor shakllanishiga nimasababbo'lishini tadqiq qilgan. G.T.Yadgarovanning «Noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» nomli dissertatsiyasidaesa o'smirlarning ijtimoiylashuvi normal kechishi inson psixikasida barcha jarayonlarga tezlikbilanadaptasiya (moslashuv) hosil qilinishi va mazkur jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'siri ilmiypsixologik jihatdan asoslab beriladi. D.M.Anvarovanning «O'smirlar ma'naviyati

shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari»nomli nomzodlik dissertatsiyasida esa o'smirlarning hissiy-emotsional xususiyatlarni ularningma'naviyatini shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari va aynan o'smirlikyoshidakechadigan inqirozli holatlarda shaxsda shakllangan ma'naviy bilimlar uning ko'plab salbiyilatlargaog'ishishini bartaraf qilishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.[7] Suitsidal axloq psixologiyasi, insonlarning inqiroz etishga olib keladigan o'zgarmalar va ularningo'ziniinqiroz etishini oldini olishda qanday yordam berishning psixologik asoslari va prinsiplari bilanshug'ullanadi. Bu sohada ko'plab mavzularni o'z ichiga oladi, masalan:

1. Inqirozlarga olib kelishning sabablari: Psixologlar inqirozlarga olib kelishning asosiy sabablari haqidatadqiqotlar olib borishadi. Bu sabablar o'rtacha hayotning o'zgarishi, jismoniy va ruhiy muammoning mavjudligi, aloqalar, ish haqida ko'p mas'alalar, yolg'on hayotga qarshi o'zgarmalar kabi turli sabablargabo'lishi mumkin. [8] 2. Yordam berish usullari: Suitsidal axloq psixologlari, insonlarga inqiroz etishni oldini olishuchunqanday yordam berish kerakligini o'rganishadi. Bu yordamlar o'rtacha terapiya, farmakoterapiya, onlaynyordam va mavjud qo'llanmalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. 3. Inqirozlarga qo'llanish va davom ettirish: Psixologlar, inqirozlarni oldini oladigan, ularni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar va strategiyalarni rivojlantirishadi. Bu, inqiroz qilishni oldini olish, qaytatiklashva inqiroz jarayonida o'zaro muloqotlarni o'rganish, shu jumladan, inqiroz aetgan shaxslargaqo'limbo'lgan kabi ko'rsatmalar orqali sodda qilishni o'z ichiga oladi. 4. Jismoniy va ruhiy davolash: Psixologlar, inqiroz etgan insonlarga ruhiy va jismoniy yordamberishnio'rganishadi. Bu, davo va terapiya yo'nalishlarini alohida qo'llash orqali odamlarni qayta tiklashvasoddahayotga qaytarishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotchilar suitsid bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarni olib borgan bo'lsalarda, aynandeviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidial xulq-atvorni kelib chiqishi va profilaktikasi bo'yichakonkretilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Shunday qilib, o'zini o'ldirish barcha tadqiqotchilar tomonidan shaxsning nizolarni kechirishsharoitidagiijtimoiy psixologik dezadaptatsiyasi oqibati sifatida qaralgan. Bunda suitsid o'zida shaxsningfavqulotdavaziyatlardagi xulq-atvorining variantlaridan birini namoyon etadi, shu bilan birga vaziyatningsuiqasdgamosligi bilan emas, balki subektning o'ziga hosliklari, uning hayotiy tajribasi, intellekti, ichki shaxsiyaloqalarning mustahkamligi bilan aniqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, suitsidial holatlar uchrashi, ularni ijtimoiylashuvi jarayonidama'naviy-axloqiy qadriyatlaming buzilishi singari salbiy tendensiyalar, muhimhayotiy ahamiyatgaegatushunchalarning noto'g'ri idrok etilishi natijasida vujudga keladigan stixiyali ijtimoiylashuv, shaxlarningo'zini namoyon qilishga intilishi bilan bog'liq ravishda shakllanadigan deviant xulq-atvor, dezadaptatsiyakabi sifatlarni rivojlanishi uchun xizmat qilishi mumkin. Umuman, deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidial holatlarni oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktikva psixokorreksion ishlarning olib borilishi ularning ijtimoiy-psixologik taraqqiyotni ta'minlashgaxizmatqilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological DefensesManifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник

интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233-237.

2. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76

3. Elov Z.S. Conditions and the reasons of cases of the suicide among the staff of law-enforcement bodies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017

4. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academicia globe: interdisciplinary research volume: 3, issue 1, january-2022 39-42

5. Elov Z.S. Researches of the Reasons Conditions, Factors of Suicide Risk Intellectual Archive Volume 5 Number 1. 2016. 49-53

6. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>

7. Parpiyev, O., & Pozilov, H. (2023, June). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI. In Конференция: Союз Науки и Образования (Vol. 5, No. 2, pp. 63-74).

8. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>

OILAVIY MUNOSABATLARNING O'SMIR TARBIYASIGA TA'SIRI

Sharafitdinov Abdulla XXX

O'zMU Jizzax filiali dotsenti
abdulla_sharafitdinov@gmail.com

Yuldasheva Sojida Zoirovna

O'zMU Jizzax filiali o'qituvchisi

Tursunmurodova Marjona Yoqubjon qizi,

Xushvaqtova Diyora Shavkat qizi

O'zMU Jizzax filiali talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning o'smir tarbiyasiga ta'siri, oiladagi sog'lom muhitning farzand ruhiyati va xulq-atvoriga ko'rsatadigan ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar, oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat hamda nizolarning o'smir psixologiyasiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan o'smir tarbiyasida oilaning o'rnini, zamonaviy oilalardagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, o'smir tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, psixologiya, ruhiy rivojlanish, mehr-muhabbat, ota-ona, tarbiya, oilaviy muhit, ijtimoiy moslashuv.